



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



NE ISTASAM AYLAB MUHAYYO QO'LLAR MENI HUR O'ZBEKISTON!

Ushbu sonda



DOLZARB MAVZU

Amerikada o'zbek
tilini o'rganishga
qiziqish ortmoqda

3
bet



ADABIYOTSHUNOSLIK

Ruboiy janrida
an'anaviylik

6
bet



TAHLIL

Bolalar
adabiyotining
bola yoshiga
munosibligini
aniqlash mezonlari

24
bet



TADQIQOT

Lingvomadani-
yatshunoslikda
milliy-madaniy,
yoshga doir va
ijtimoiy noverbal
kodlar

35
bet



LITERATURAVEDENIE

Образ женщины
в романе «Герой
нашего времени»

59
bet



O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida 2014-
yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan
qayta ro'yxatga
olingan
2024-yil. 6-son

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO'LAGANOVA
Yo'ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Bekkenbauer REYMOV
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIDINOVA
Shahnoza TURNIYAZOVA
Ra'no ABDUSALOMOVA
To'lqin XOLJO'RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO'JAMQULOV
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar @TilAdabiyot_bot orqali qabul
qilinadi.

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til
va adabiyot ta'limi» dan olindi, deb izohlanishi
shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-
mulohazalari bo'lishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilin-
maydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ism-familiyasi shaxsini tas-
diqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2024.28.06. da topshirildi. Of-
set usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₂.
Shartli bosma tabog'i 6.0. "Arial" garniturasida.
10, 11 kegl. "GOLD PRINT PRESS" MChJ bos-
maxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri
Uchtepa tumani 11-mavze 43-uy. Buyurtma
Adadi 6850 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Amerikada o'zbek tilini o'rganishga qiziqish ortmoqda 3

ADABIYOTSHUNOSLIK

Dildora Nazarova. Ruboiy janrida an'anaviylik 6
Hulkar Rajabova. Qissalarda realistik ruhiyat talqini 8
Umida Rashidova. Erkin Vohidov she'riyatida frazeologizmlar 10

TILSHUNOSLIK

Kamola Vasliddinova. Classification of the corpus for linguistic research according to its characteristic properties 13
Mahnuba Sadikova. Ispan tilini o'qitishda internet resurslarining o'rni 15
Nigora Abduraximova. Turk tilida -sa, -se qo'shimchalari orqali murakkab gaplar tuzish xususiyatlari 16

TAHLIL

Bekzod Ibragimov. Elbek va "Chig'atoy gurungi" 18
Shahnozaxon Komolova. Nemis va o'zbek xalq maqollaridagi lingvomadaniy tushunchalarning tahlili 20
Gulbahor Fozilova. O'zbekiston janubidagi dostonchilik an'analari 22
Dinara Muminova. Bolalar adabiyotining bola yoshiga munosibligini aniqlash mezonlari 24

TARJIMASHUNOSLIK

Zamira Shukurova. Maqollar va hikmatli so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari 29

METODIK TAVSIYA

Aziza Akhmedova. Role of newspapers in teaching reading skills to intermediate level students 30
Mahliyo Xolmurodova. Fanlarni o'qitishda samarali usullardan foydalanish metodikasi 32
Elmirza Erkayev, Bobomurod Bobojonov. Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkilloshtirishda mashqlarning o'rni 33

TADQIQOT

Madina Berdimuratova. Lingvomadaniyatshunoslikda milliy-madaniy, yoshga doir va ijtimoiy noverbal kodlar 35
Mubina Soleyeva. Yapon maqollarining tarixiy tadriji 37
Ozod Tilovov. Xitoy tilida miqdor va daraja to'liqlovchilarini o'rganishdagi devyatsiya tahlili 39

KICHIK TADQIQOT

Dilafro'z Otamurodova, Shamsiyabonu Ismoilova. Lingvopragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarning
tilshunoslikdagi ifodasi 41
Mahliyo Hayitova. O'zbek tilshunosligida "suv" leksemi va uning o'rganilishi 42
Mahnuba Quvondiqova. Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asarining o'rganilishi 44
Nazira Yangibayeva. "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida o'zbek shevalarining o'rganilishi 45
Shakhnoza Murtazayeva. Main problems of teaching English as a foreign language in a non-language environment 47

IZ OPIYTA PREPODAVATELYA

Vazira Xasanova. Трудности в преподавании русского языка как иностранного в технических вузах 49
Moxlaroy Bakieva, Gulmira Mamadjanova. Соматическая лексика русского языка в аспекте
речевой культуры 50

V POMOSH'YU PREPODAVATELYU

Maxfura Dехkanova. Методы и приёмы активизации лексики на уроках русского языка 52
Muxabbat Rahimova. Использование занимательного материала на уроках русского языка в школе
с узбекским языком обучения 54
Хилола Юнусова. Обучение лексике русского языка как неродного 56

LITERATURAVEDENIE

Dilrabo Shadiyeva. Образ женщины в романе «Герой нашего времени» 59
Dilyafuz Abduraimova. «Петербургский текст» – семиотический код лингвокультурного пространства 60
Dilfuza Xusenova. Влияние Востока на русскую литературу 62

NAUCHNYE ISSLEDOVANIYA

Tatyana Trigufova. Медиополитический дискурс: сущность, особенности и влияние на общественное
мнение 64
Nilufar Usmonova, Mahbuba Xamidova. Стратегии организации образовательного процесса для эффективного
формирования интереса к иностранному языку у будущих педагогов в лингвополикультурной среде 66
Bauyrjan Baymukhano. Стиль и направления 68

SOVREMENNYE TEKHOLOGII

Barno Kadirova, Nigora Abdullaeva. Обзор современных инновационных технологий преподавания
русского языка в вузе 72

FORMY OBUCHENIYA

Zulayxo Nizomitdinova, Shuxrat Rasulov. Прогрессивные методы преподавания иностранного языка в вузе:
внедрение современных технологий и формирование «4К» компетенций 73
Феруз Султонов. Деловые игры в обучении переводчиков: анализ преимуществ и недостатков
для эффективного формирования переводческой компетенции 75
Shahnoza Abdukaurova, Dildora Tolipova. Инновационные методы обучения русскому языку
в нефилологических вузах 76

SVET NEFASHUCHIY IMEN

Anatoliy Lixodzievskiy. «Теоретик и практик реализма» 78

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

joyda o'tirishiga ruxsat bering. Tabiiyki, o'quvchilar birinchi partada o'tirishni xohlashadi.

2. **"Liderlik!"**. O'quvchiga bir kun yoki bir hafta mobaynida sinf sardori bo'lishiga imkon bering.

3. **"Qo'shimcha tanaffus!"**. Dars davomida o'quvchiga qo'shimcha tarzda 5-8 daqiqa tanaffus qilib olishiga ijozat bering.

4. **"Uyga vazifani o'tkazib yuboring!"**. Bir dars o'quvchidan uyga vazifani so'ramang.

5. **"Birga tushlik hamda ustoz bilan suratga tushish!"**. Bir kun o'quvchingiz bilan suhbatlashib tushlik qiling va suratga tushing. Bu imkoniyat o'quvchilarga kutilmagan va juda qiziqarli jarayon bo'ladi. Qolaversa, ustoz bilan o'quvchi o'rtasida samimiy aloqa o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Xuddi shu tarzda **"Jazolar guldastasi"**ni ham yaratishingiz mumkin. O'quvchilarga past baho qo'yish, ota-onasiga xabar qilish, stul ko'tartirib qo'yishdan ko'ra ular uchun sevimli bo'lgan biror narsani taqiqlab qo'ying. Yoki jazo turini o'zgartiring. Masalan:

1. Bir hafta davomida darsga 10 daqiqa oldin kelib changlarni artish.

2. Bir kun doskani tozalash.

3. Ikki kun tanaffusga chiqmaslik.

4. Uch kun navbatchilik qilish.

5. Yoqtirgan shirinligini yemaslik va hokazo.

Darsda o'quvchilar nega shovqin qiladi? Nima sababdan aksariyati bilim olishga e'tiborsiz? Bunga quyidagicha javob berish mumkin. Insonga u turgan muhit yoqmasa yoki zerikarli bo'lsa, noqulaylik sezadi. Imkon qadar o'sha holatdan chiqib ketishga urinadi. O'quvchilar psixologiyasida ham xuddi shunday jarayon kechadi. Dars muhiti, darsdagi qaysidir vaziyat o'quvchiga ma'qul kelmasa, u o'ziga yoqqan biror mashg'ulot bilan shug'ullanishga va e'tiborni jalb qilishga urinadi. Bunday holatlar yuz bermasligi asosan, o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchi darsga ishtiyoq sezmasa, o'quvchi ham qiziqmaydi. Qiziqarli metodlardan foydalanish orqali esa darsni samarali o'tkazib, sevimli ustozga aylanish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, o'qishga qiziqirishning eng yaxshi yo'li o'qitishga qiziqishdir!

Elmirza ERKAYEV,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi;*

Bobomurod BOBOJONOV,

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti o'qituvchisi*

CHET TIL TA'LIMIDA MUSTAQIL ISHNI TASHKILLASHTIRISHDA MASHQLARNING O'RNI

So'nggi yillarda chet tillarni mustaqil o'rgatish-o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ta'limni tashkil etish masalasi bugungi kunning ustuvor ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalasiga aylandi.

Mustaqil ta'limga turlicha ta'rif-tavsif keltirilgan. Jumladan, o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha beriladi: 1. O'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz ish qila oladigan, o'zicha fikr yurita oladigan, yashay oladigan. 2. Faqat o'ziga taalluqli, o'zgalar ishtirokisiz, ta'sirisiz bo'ladigan. *O'zining qiziqib, mustaqil shug'ullanishi natijasida bu tilni o'qituvchisi bilan gaplasha oladigan darajada bilib oldi.* Mirmuhsin, Umid. *Mening gapim shu: mustaqil fikringiz bo'lsa, yana o'ylab ko'ring.* R.Fayziy [1: 652].

Mashq tushunchasi esa metodik adabiyotlarda turli ta'rif va tavsiflarga ega bo'lib kelgan [2]. Hozirgacha mashq sistemasining tarkibiy qismlari, mashqlar sistemasining tasnifi borasida bir qancha lingvistik, psixolingvistik va didaktik tadqiqot ishlari olib borilgan (I.V.Raxmanov, V.A.Buxbinder, N.I.Gez, M.S.Ilin, J.J.Jalolov, I.M.Berman va b.).

Professor V.A.Buxbinderning fikricha, mashq deganda til hodisalariga oid bilimlarni egallash, leksik, gram-

matik, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, mazkur birliklarni nutq vaziyatida to'g'ri qo'llash amali tushuniladi. Olim psixolingvistik tarafdin informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar haqida ilmiy izlanishlar olib borgan. Informatsion mashqlar bilim beradi, operatsion esa til materialini o'rgatish orqali ko'nikmani shakllantiradi, motivatsion bo'lsa nutqiy malaka hosil qilishda bajariladigan mashg'ulotlardir.

Taniqli metodistlardan professor I.V.Raxmanov barcha mashqlarni lingvistik nuqtayi nazardan til va nutq mashqlari nomi bilan yuritgan.

Respublikamizda ham mashqlar sistemasining tasnifiga doir nufuzli tadqiqotlar o'tkazilgan. Shakllantiruvchi mashqlar til materialini (leksika, grammatika, talaffuz)ni o'zlashtirish, rivojlantiruvchi mashqlar til materialini egallash, tilga oid dastlabki ko'nikmalarni mustahkamlash, takomillashtiruvchi mashqlar esa chet tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi. Boshqacha aytganda, ular bilim olish (shakllantiruvchi), ko'nikmani egallash (rivojlantiruvchi) va malakani o'stirishga (takomillashtiruvchi) yo'naltirilgan mashqlar deb ataladi [2].

Mashq turlaridan biri – tarjimani olimlar turlicha talqin qiladi. Tadqiqotchilardan A.V.Fedorov [3] va L.S. Barxudarov [4] tarjimaga lingvistik jihatdan yondashib, uning ikki ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi: 1) muayyan bir matn (yoki matn parchasini) ikkinchi bir tilga o'g'irish; 2) tarjimaning o'zi, "tarjima qilmoq" fe'lidan kelib chiqqan hosila.

"Tarjima" so'zining chet tilini o'qitish metodikasidagi terminologik ma'no doirasi "tarjima metodi", "tarjima mashqi", "tarjima usuli" kabi birikmalarda ifodalanadi. Zero, chet tilni nutq faoliyati sifatida o'rgatish-o'rganish jarayonida vaqti-vaqti bilan tarjima mashqiga murojaat qilish zarurati chet til o'qitish metodikasida batafsil ochib berilgan.

Oddiyroq aytganda, chet tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni nutq faoliyati turlari sifatida egallash alohida tarjima mashqlarini talab qiladi. Chunonchi, til va nutq birliklari hisoblanmish so'z, jumla, matn kabilarni o'rganishda quyidagi tarjima mashqlarining bajarilishi metodik jihatdan o'zini oqlaydi:

a) yangi so'zning ma'nosini ochish (semantizatsiya)-da, tarjimasiz usuldan foydalanish imkoni bo'lmaganda, so'z ona tiliga tarjima orqali beriladi;

b) chet tildagi jumla murakkab bo'lsa, tarjima qilindi. So'zma-so'z tushuniladigan jumlar esa o'rganilgan so'zlar yordamida tarjimasiz taqdim etiladi; matn o'qishda u boshdan-oxir og'zaki tarjima qilinmaydi; yozma tarjima uchun berilgan matn esa tarjimani o'rgatishga mo'ljallanmaydi, balki uning tarkibidagi yangi so'zlarni lug'at yordamida talabaning qanchalik to'g'ri semantizatsiya qilgani tekshirib ko'riladi, xolos.

Lug'atdan foydalanishni o'rganish maqsadida matn yozma tarjima qilinadi, buning uchun darslikda maxsus mashqlar beriladi: "Matn o'qing va uni lug'at yordamida yozma tarjima qiling". Matndagi yangi so'zlar ma'nosini talaba mustaqil tarzda lug'atdan topishi hisobga olinadi.

Asrlar davomida tarjima metodi orqali o'tkazib kelingan chet til mashg'ulotida til o'rganuvchining tafakkurini rivojlantirishi maqsad qilib qo'yilgan. Keyinchalik ushbu metodning faqat o'lik (lotin, qadimiy yunon) tillarni o'rgatishga mos kelishi, jonli tillarni esa mazkur metod bilan o'rgatish imkoni yo'qligi ilmiy asoslandi. Shu tariqa, xalqaro miqyosda ko'pchilik mutaxassislarga ma'lum bo'lgan to'g'ri metod, audiolingval metod, audiovizual metod, intensiv metod kabilar vujudga keldi. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida chet tilni o'rgatish kommunikativ metod bilan amalga oshirilmoqda.

I.V. Raxmanov tarjima bilan bevosita bog'liq masalalarga to'xtalib, chet tilini o'rgatishning ikki qonuniyatini ko'rsatgan edi:

1) chet tilni o'rgatish ona tili asosida bo'lishi (ushbu qonuniyat hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki ona tili orqali chet tilni o'rganish real voqelikni aks ettiradi);

2) chet tilni o'rgatish, qanday maqsadda bo'lmasin, tinglab tushunish va gapirish mashqlarini bajarish evaziga bo'lishi kerak [5].

Chet til o'qitish tarixida tarjimani o'rgatishda ikki holatni kuzatishimiz mumkin: birinchidan, uzoq muddat chet tilni jahon miqyosida ona tiliga tarjima qilish orqali o'rgatib-o'rganib kelingan (bunda "tarjima metodi"ni eslatib o'tish kifoya); ikkinchidan, badiiy va boshqa adabiyotlarning tarjimada o'qilishi ta'sirida "chet til – tarjima" tarzidagi fikriy bog'lanish (assotsiatsiya) hosil bo'lgan.

Tarjima so'zining ma'no doirasi shunchalar kengki [2], quyidagi birikmalarda buni oson ilg'ab olish mumkin: 1) tarjima metodi, tarjima mashqi, tarjima usuli; 2) badiiy tarjima, ilmiy tarjima, tarjima mahorati; 3) matn/ibora/so'z tarjimasi, og'zaki/yozma tarjima, sinxron tarjima; 4) ko'hna matnlarni/manbalarni hozirgi zamon adabiy tiliga ag'darish/o'g'irish va h.k.

Chet til darslarida rolli va ishbilarmonlik mashqlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi mashg'ulotlardan foydalanish talabalarning darsga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda yangi so'zlarni o'zlash-tirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga chet tilni o'rgatishning amaliy ahamiyatini oshirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan rolli mashqlardan ayrimlarini nemis tili misolida sanab o'tishni lozim topdik. Bular sirasiga "Gruppe kennen lernen", "Der-Die-Das" kabi o'yin-mashq turlari kiradi.

Dastlab talabalar o'zlarini tanishtirish jarayonida ismiga mos tushadigan farfdan foydalanishi tavsiya etiladi. Masalan: *Shristoph wie chaotisieren* yoki *Man nennt mich Shristoph*. Bunda turli mimika va pantomimikalarni ham ishlatsa bo'ladi.

Talabalarning alohida guruh, individual yoki yop-pasiga ishlashi orqali ushbu mashq turlarini shakllantirish mumkin. Nemis tilida "Mening oilam" mavzusini tushuntirishda quyidagi usuldan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqda talaba o'z oilasi emas, balki do'sti haqidagi ma'lumotlarni tasvirlay olishi kerak. Ya'ni u do'stining ismi, oilasining necha kishidan iboratligi, bo'sh vaqtida nima bilan mashg'ul bo'lishi yoki nimaga qiziqishi to'g'risida informatsiya beradi. Bu mashqni bajarishda guruhdagi barcha talaba ishtirok etadi. O'z navbatida, bu so'z boyligini oshiradi.

Keyingi mashq turi "Der-Die-Das" *Spiel* deb ataladi. Bunda uchun talabalarning so'zni to'g'ri qo'llashi va uning talaffuziga ahamiyat beriladi. "Der-Die-Das" yordamida talabalar bir-birini rodlarga mos kelgan holda tasvirlaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, chet til (nemis tili) amaliy mashg'ulotlarida o'yinga asoslangan darslarni tashkil etishda mashqlar tizimidan o'z o'rnida foydalanishni tavsiya etish mumkin. Bu esa talabalar-ning rolli mashqlarni bajarishi davomida o'rganilayotgan til bo'yicha ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga xizmat qilishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.II. E.-M. / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы). – М.: Высшая школа, 1983.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М. Междунар. отношения, 1975.
5. Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранным языке. – М.: Высшая школа, 1980.